
№5 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№5 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD
Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION OMILLARNING AHAMIYATI

Rasulov Zokir Pardayevich
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kasbiy motivatsiya, kasbiy qiziqish, muvaffaqiyatga intilish, kasbiy maqsadlarni anglash va o‘zini-o‘zi rivojlantirish ehtiyojining o‘rni nazariy jihatdan tahlil qilingan. Empirik qismda 20-22 yoshdagi 297 nafar va 23-25 yoshdagi 263 nafar talabaning stressli vaziyatlardagi koping-xulq strategiyalari T.A. Kryukovaning “Stressli vaziyatlarda koping-xulqni baholash” so‘rovnomasi asosida qiyoslandi. Mann-Uitni U-mezoni natijalariga ko‘ra, muammoga yo‘nalgan koping, qochishga yo‘nalgan koping va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash strategiyalarida yosh guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlandi, emotsional yo‘nalgan va chalg‘ish strategiyalarida esa bunday farq kuzatilmadi. Natijalar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda motivatsion omillar bilan bir qatorda, stressni boshqarish, o‘zini-o‘zi tartibga solish va refleksiv tayyorgarlikni ham tizimli shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sport psixologi, kasbiy kompetentlik, kasbiy motivatsiya, motivatsion omillar, kasbiy qiziqish, kasbiy maqsad, muvaffaqiyatga intilish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, koping strategiyalari, refleksiv faoliyat.

ЗНАЧЕНИЕ МОТИВАЦИОННЫХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПОРТИВНЫХ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация: В статье теоретически проанализирована роль профессиональной мотивации, профессионального интереса, стремления к успеху, осознания профессиональных целей и потребности в саморазвитии в развитии профессиональной компетентности будущих спортивных психологов. В эмпирической части сопоставлены копинг-стратегии поведения в стрессовых ситуациях у 297 студентов 20-22 лет и 263 студентов 23-25 лет по методике Т.А. Крюковой «Оценка копинг-поведения в стрессовых ситуациях». По результатам U-критерия Манна-Уитни статистически

значимые различия между возрастными группами выявлены по проблемно-ориентированному копингу, копингу избегания и поиску социальной поддержки; по эмоционально-ориентированному копингу и отвлечению значимых различий не установлено. Полученные результаты показывают необходимость сочетать развитие мотивационных факторов с целенаправленным формированием навыков управления стрессом, саморегуляции и рефлексивной готовности.

Ключевые слова: спортивный психолог, профессиональная компетентность, профессиональная мотивация, мотивационные факторы, профессиональный интерес, профессиональная цель, стремление к успеху, саморазвитие, копинг-стратегии, рефлексивная деятельность.

THE IMPORTANCE OF MOTIVATIONAL FACTORS IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE SPORTS PSYCHOLOGISTS

Abstract: The article theoretically examines the role of professional motivation, professional interest, achievement striving, awareness of professional goals, and the need for self-development in developing the professional competence of future sport psychologists. In the empirical part, coping strategies in stressful situations were compared between 297 students aged 20-22 and 263 students aged 23-25 using T.A. Kryukova's questionnaire for assessing coping behavior. According to the Mann-Whitney U test, statistically significant age-group differences were found in problem-focused coping, avoidance coping, and seeking social support, whereas no significant differences were observed in emotion-focused coping and distraction. The findings indicate that the development of professional competence should combine motivational support with systematic training in stress management, self-regulation, and reflective skills.

Key words: sport psychologist, professional competence, professional motivation, motivational factors, professional interest, professional goal, achievement striving, self-development, coping strategies, reflective activity.

KIRISH

Sport psixologining kasbiy faoliyati sportchilarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, musobaqaga psixologik tayyorgarlikni tashkil etish, stress va emotsional zo‘riqishni boshqarish, motivatsion holatni barqarorlashtirish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash hamda sportchi–murabbiy munosabatlarini psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash kabi murakkab vazifalarni qamrab oladi. Shu sababli

bo‘lajak sport psixologining kasbiy kompetentligi faqat nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar yig‘indisi bilan cheklanmaydi; u kasbiy faoliyatga barqaror qiziqish, maqsadga yo‘nalganlik, mas’uliyat, mustaqil qaror qabul qilish, refleksiya va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga tayyorlik kabi shaxsiy-psixologik sifatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda motivatsiya alohida o‘rin tutadi. Ichki motivatsiya talabaning kasb mazmuniga qiziqishi, kasbiy vazifalarni anglab bajarishi va o‘z imkoniyatlarini rivojlantirishga intilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya rag‘bat, ijtimoiy e’tirof, baholash va kasbiy istiqbol kabi omillar orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur ikki yo‘nalishning muvozanati bo‘lajak mutaxassisning ta’lim faoliyatidagi faolligi, amaliy mashg‘ulotlarda qatnashuvi hamda professional bilim va ko‘nikmalarni izchil o‘zlashtirishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Sport psixologiyasi sohasida kasbiy motivatsiya stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish, murakkab muammolarni tahlil qilish va vaziyatga mos koping strategiyasini tanlash qobiliyati bilan ham uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak sport psixologlarida motivatsion tayyorgarlikni o‘rganish bilan bir qatorda, ularning stressga munosabati va koping-xulq xususiyatlarini tahlil qilish kasbiy kompetentlikning psixologik mexanizmlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda motivatsion omillarning nazariy ahamiyatini ochib berish, shuningdek, turli yosh guruhlarida stressli vaziyatlarda qo‘llanadigan koping strategiyalaridagi farqlarni aniqlash asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashdan iborat.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Kasbiy faoliyat motivatsiyasi sport va kasbiy psixologiyada shaxs faolligining mazmuni, maqsadi va barqarorligini belgilovchi omillardan biri sifatida talqin qilinadi. A.G. Barabanov, A.P. Goryachev va V.S. Nikitin sport faoliyatini optimallashtirishda shaxsning psixologik zaxiralari va motivatsion resurslarining ahamiyatini qayd etadi [1; 28-29-b.]. Ushbu yondashuv bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy tayyorgarligida ham kasb mazmuniga qiziqish va faoliyatga ichki ehtiyojning muhimligini ko‘rsatadi.

D.K. Davletkaliyev kasbiy moslashuv jarayonida ichki va tashqi rag‘batlantiruvchi omillarning o‘zaro nisbatiga e’tibor qaratadi [2; 64-b.]. V.A. Ermakov esa muvaffaqiyatga intilish, kasbiy maqsadga yo‘nalganlik va faoliyat natijasiga munosabatni motivatsion sohaning muhim ko‘rsatkichlari sifatida ko‘rsatadi [3; 615-b.]. Mazkur qarashlar sport psixologining professional faoliyatiga

tayyorgarlikda kasbiy maqsadlarning aniqligi va natijaga yo‘nalganlikni rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

E.S. Maksimova sport bilan shug‘ullanish motivlarining mashg‘ulot va musobaqa davrlarida dinamik o‘zgarishini tahlil qilgan [4]. S.A. Solomatin yuqori natijalar sportida motivatsiya tuzilmasi faoliyat mazmuni va shaxsiy maqsadlar bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi [5; 89-93-b.]. A.V. Shaboltas yosh sportchilarda sport faoliyatiga undovchi motivlarning mazmuni va ierarxiyasini yoritib, motivatsiyaning barqarorligi sport faoliyatidagi qat’iyatlilik bilan aloqadorligini ko‘rsatadi [6; 35-b.].

Yu.P. Zinchenko tahriri ostidagi “Psixologiya sporta” asarida sport psixologiyasi yo‘nalishidagi professional tayyorgarlik shaxsning kasbiy faoliyat mazmunini anglash, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga intilish, muvaffaqiyatga erishish hamda o‘zini malakali mutaxassis sifatida namoyon etishga yo‘naltirilgan motivlar tizimi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi [7; 12-15-b.]. Shundan kelib chiqib, kasbiy motivatsiyani bo‘lajak sport psixologining kasbiy rivojlanish faolligi va kompetentligini qo‘llab-quvvatlovchi muhim psixologik determinant sifatida baholash mumkin.

Tadqiqotda nazariy tahlil, ilmiy manbalarni qiyosiy o‘rganish, kuzatish, suhbat va psixodiagnostik so‘rovnoma usullaridan foydalanildi. Empirik qismda T.A. Kryukovaning “Stressli vaziyatlarda koping-xulqni baholash” so‘rovnomasi asosiy diagnostik vosita sifatida qo‘llanildi. Taqdim etilgan ma’lumotlar 20-22 yoshdagi 297 nafar va 23-25 yoshdagi 263 nafar, jami 560 nafar talabaning natijalarini qamrab oladi.

Yosh guruhlari o‘rtasidagi farqlar parametrik bo‘lmagan Mann-Uitni U-mezoni yordamida baholandi. Statistik ahamiyat chegaralari $p<0,05$ va $p<0,01$ darajalarida qabul qilindi. Tahlilda muammoga yo‘nalgan koping, emotsional yo‘nalgan koping, qochishga yo‘nalgan koping, chalg‘ish (distraksiya) hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash strategiyalari qiyoslandi. O‘rtacha ranglar guruhlar o‘rtasidagi nisbiy farqni ko‘rsatish uchun qo‘llanildi.

Mazkur empirik tahlil motivatsiyani bevosita o‘lchovchi shkalalar natijalarini emas, balki bo‘lajak sport psixologlarining stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish xususiyatlarini aks ettiradi. Shu sababli koping ko‘rsatkichlari kasbiy kompetentlikning motivatsion jihatlari bilan bir qatorda ko‘rib chiqiladigan psixologik-regulyativ komponent sifatida talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kasbga qiziqish, kasbiy maqsadlarni anglash, muvaffaqiyatga

intilish va o‘zini-o‘zi rivojlantirish ehtiyoji muhim motivatsion omillar ekanligini ko‘rsatadi. Bunday motivatsion yo‘nalganlik ta’lim jarayonida mustaqil bilim olish, real sport vaziyatlarini tahlil qilish, refleksiv baholash va amaliy vazifalarni mas’uliyat bilan bajarish faolligini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq kasbiy faoliyatning stressogen xususiyati sababli mutaxassisning motivatsion tayyorgarligi samarali koping va o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashishi zarur.

1-jadval

Turli yosh guruhlaridagi talabalarning “Stressli vaziyatlarda koping-xulqni baholash” so‘rovnomasi shkalalari bo‘yicha taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Shkalalar	20-22 yosh (n=297), o‘rtacha rang	23-25 yosh (n=263), o‘rtacha rang	U	p
Muammoga yo‘nalgan koping-strategiya	268,42	289,86	33015,5	0,032*
Emotsional yo‘nalgan koping-strategiya	285,31	273,66	36482,0	0,178
Qochishga yo‘nalgan koping-strategiya	262,85	294,90	33274,5	0,009**
Chalg‘ish (distraksiya) koping-strategiyasi	281,18	281,95	38996,0	0,941
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash strategiyasi	271,94	290,01	34752,5	0,041*

*Izoh: ** $p<0,01$; * $p<0,05$.*

Natijalarga ko‘ra, muammoga yo‘nalgan koping strategiyasi bo‘yicha yosh guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq aniqlandi (U=33015,5; p=0,032). 23-25 yoshli talabalar guruhida o‘rtacha rangning yuqoriroq bo‘lishi (289,86 ga nisbatan 268,42) ushbu guruhda muammoni tahlil qilish, vaziyatni nazorat qilish va amaliy yechim izlashga moyillik nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi. Bo‘lajak sport psixologi faoliyatida bunday strategiya murakkab vaziyatni tezkor tahlil qilish va konstruktiv qaror qabul qilish uchun muhimdir.

Emotsional yo‘nalgan koping bo‘yicha guruhlar o‘rtasida ishonchli farq kuzatilmadi (U=36482,0; p=0,178). O‘rtacha ranglarning yaqinligi ikki yosh guruhida ham stressga emotsional javob berish darajasi o‘xshash ekanligini

ko‘rsatadi. Bu holat emotsional boshqaruv ko‘nikmalarini barcha talabalarda, yoshidan qat’i nazar, maqsadli rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Qochishga yo‘nalgan koping strategiyasida yuqori darajadagi statistik farq qayd etildi (U=33274,5; p=0,009). 23-25 yosh guruhida o‘rtacha rang 294,90 ni, 20-22 yosh guruhida 262,85 ni tashkil etdi. Mazkur natija katta yoshdagi guruhda qochishga yo‘nalgan strategiyadan foydalanish nisbatan yuqori ekanligini bildiradi. Bunday strategiya qisqa muddatda hissiy zo‘riqishni pasaytirishi mumkin bo‘lsa-da, kasbiy vazifalarni muntazam chetlab o‘tish shakliga aylanganda qaror qabul qilish va mas’uliyatni o‘z vaqtida amalga oshirishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli uni muammoga yo‘nalgan va refleksiv strategiyalar bilan muvozanatlashtirish muhimdir.

Chalg‘ish (distraksiya) strategiyasi bo‘yicha statistik farq aniqlanmadi (U=38996,0; p=0,941). Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash strategiyasi bo‘yicha esa guruhlar o‘rtasida ishonchli farq kuzatildi (U=34752,5; p=0,041): 23-25 yoshli talabalarda o‘rtacha rang 290,01, 20-22 yoshli talabalarda 271,94 ni tashkil etdi. Bu katta yoshdagi talabalar murakkab vaziyatlarda boshqa shaxslar, tengdoshlar yoki mutaxassislardan yordam izlashga nisbatan ko‘proq moyil ekanligini ko‘rsatadi.

Umuman, empirik natijalar yosh omili ayrim koping strategiyalarini tanlashda farqlanishini ko‘rsatdi. Muammoga yo‘nalgan strategiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlashning kuchayishi kasbiy tajriba, muloqot va muammo yechishga tayyorlik bilan uyg‘unlashishi mumkin; qochishga yo‘nalgan strategiyaning yuqoriroq ko‘rsatkichi esa bo‘lajak mutaxassislarni stressni konstruktiv boshqarish, vaziyatli tahlil va refleksiv qaror qabul qilishga o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur jihatlar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda motivatsion qo‘llab-quvvatlash bilan psixologik o‘zini-o‘zi boshqarish treninglarini integratsiyalash maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Bo‘lajak sport psixologining kasbiy kompetentligi bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan bir qatorda kasbiy motivatsiya, kasbiy maqsadlarni anglash, muvaffaqiyatga intilish, refleksiya va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga tayyorlikni ham qamrab oluvchi integrativ sifat sifatida shakllanadi.

2. Adabiyotlar tahlili ichki kasbiy motivatsiya, kasb mazmuniga qiziqish va professional istiqbolni anglash bo‘lajak mutaxassisning ta’lim va amaliy faoliyatdagi faolligini qo‘llab-quvvatlovchi muhim omillar ekanligini ko‘rsatdi.

3. Mann-Uitni U-mezoni bo‘yicha muammoga yo‘nalgan koping (p=0,032), qochishga yo‘nalgan koping (p=0,009) va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni izlash

(p=0,041) strategiyalarida 20-22 va 23-25 yosh guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlandi.

4. Emotsional yo‘nalgan koping (p=0,178) va chalg‘ish strategiyasi (p=0,941) bo‘yicha yosh guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq kuzatilmadi.

5. Bo‘lajak sport psixologlarini tayyorlashda kasbiy motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi mashg‘ulotlarni real sport vaziyatlariga asoslangan keyslar, stressni boshqarish treninglari, refleksiv topshiriqlar, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish mashqlari va superviziya elementlari bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq.

6. Kelgusi tadqiqotlarda kasbiy motivatsiyani bevosita o‘lchovchi standartlashtirilgan metodikalar natijalarini koping strategiyalari va kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlari bilan korrelyatsion tahlil qilish mavzuning empirik asoslanganligini yanada kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Барабанов А. Г., Горячев А. П., Никитин В. С. Психологические резервы оптимизации спортивной деятельности // Теория и практика физической культуры. - 2006. - № 5. - С. 28-29.

2. Давлеткалиев Д. К. Особенности социальной адаптации спортсменов-профессионалов после ухода из большого спорта: монография. - М.: Информационно-внедренческий центр «Маркетинг», 2002. - 100 с.

3. Ермаков В. А. Психология в индустрии спорта: хрестоматия. - М.: Евразийский открытый институт, 2011. - 615 с.

4. Максимова Е. С. Динамика мотивов занятий спортом в тренировочном и соревновательном периодах [Электронный ресурс]. - 2010. - Режим доступа: http://www.psydiplom.ru/index.php?title

5. Соломатин С. А. Структура и особенности мотивации в спорте высших достижений // Психология в России и за рубежом: материалы междунар. заоч. науч. конф. - СПб.: Реноме, 2011. - С. 89-93.

6. Шаболтас А. В. Мотивы занятия спортом высших достижений в юношеском возрасте: дис. ... канд. психол. наук. - СПб., 1998. - 184 с.

7. Психология спорта / под ред. Ю. П. Зинченко. - 2-е изд. - М.: Издательство Московского университета, 2021. - 351 с.

TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI: TIZIMLI TAHLIL VA STRATEGIK YONDASHUVLAR **Zamira Nishanova**	**6**
OG‘ISHGAN XULQLI O‘SMIRLAR BILAN ISHLASHDA MIKRO VA MAKRO MUHIT OMILLARI: MILLIY TARBIYA VA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK NAZORAT TIZIMI **Jabborov Xazrat Xusenovich**	**12**
XOTIN-QIZLAR MUTAASSIBLIK HOLATINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK SABABLARI **Akramov Mirmuxsin Rustamovich**	**24**
SHAXS INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIGA PEDAGOGNING PSIXOLOGIK TA’SIRI **Ashurov Ramzidin Ramazonovich**	**34**
PEDAGOGLARDA KASBIY SO‘NISH JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARINI O‘RGANISH NATIJALARI **Botirova Dilafro‘z Bozorovna**	**43**
OTA-ONA VA O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARNI GARMONIZATSIYALASHDA AFFILIATSIYA MOTIVATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI **Samatova Sevara G‘ayratovna**	**50**
STRESSNI YENGIB O‘TISHDA MOTIVATSION VA IRODAVIY RESURSLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI **Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich**	**63**
NEVROZ TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI **Abduraximov Doniyor**	**77**
BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION OMILLARNING AHAMIYATI **Rasulov Zokir Pardayevich**	**86**
UMUMTA’LIM MAKTABLARI TARIX DARSLARIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH **Rasuljon Atamuratov**	**93**

TALABALARIDA AXBOROTNI INTENSIV QABUL QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI **Ergashev Bunyod Shokir o‘g‘li**	**100**
SIYOSIY NUTQNING O‘RNI VA AHAMIYATI **Xalilova Ruxsora Raupovna**	**110**
TALABALARNING SPEAKING KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH **Rasulova Moxira Abdujalilovna**	**117**
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING DIAGNOSTIK MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI **Atamuratov Dilshod**	**123**
USTOZDAN SHOGIRDGA: XALQ OG‘ZAKI IJODINING UZLUKSIZ AN’ANALARI **Karimova Muqaddas Abdisamatovna**	**131**
BUXORO AN’ANAVIY ME’MORCHILIGIDA TURAR-JOYLAR **Shamshod Karimov**	**139**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Jurnalda chop etilgan materiallardan to‘liq yoki qisman qayta foydalanilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** ilmiy-amaliy metodologik jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga taqdim etilgan materiallar qaytarilmaydi. Barcha ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki ko‘rib chiqish, ilmiy ekspertiza va taqriz jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalning mavzu va ilmiy yo‘nalishlariga mos kelmagan, tahririyat tomonidan belgilangan talablar hamda nashr etish mezonlariga javob bermagan maqolalarni nashrga qabul qilmaslik huquqi tahririyatda saqlanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-mayda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda 1564147-sonli guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan barcha maqolalar “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi hamda ilmiy ekspertiza va ikki tomonlama anonim taqriz (Double-Blind Peer Review) jarayonidan o‘tkaziladi. Jurnalda nashr etilgan materiallarning mazmuni, keltirilgan ma’lumotlar, ilmiy natijalar va foydalanilgan manbalarning ishonchliligi hamda to‘g‘riligiga muallif(lar) mas’ul hisoblanadi.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

***

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ nashriyotida nashrga tayyorlandi va jurnalning rasmiy veb-saytiga joylashtirildi
Tahririyat manzili: Toshkent shahri, Sergeli tumani, Yangi Bunyodobod MFY, 8-uy
Rasmiy veb-sayt: https://fanlararotadqiqotlar.uz/index.php/ft
E-mail: publisher@fanlararotadqiqotlar.uz